

**SINTAKTIK BILIM – TALABALARNING NEMIS TILINI BILISH DARAJASINI ANIQLASHDA MUHIM
KO'RSATKICH SIFATIDA**

Sh. Xadjijeva ¹

Annotatsiya:

Quyidagi maqolada nemis tilini o'rganish jarayonida gap tuzish ko'nikmasini baholash uchun ishlab chiqilgan Profilanalyse (profil tahlili) usuli haqida gap yuritiladi. Ushbu yondashuv nemis tilini ikkinchi til sifatida o'rganish sohasiga oid tadqiqot natijalariga asoslangan bo'lib, ko'plab nemis mutaxassislar tomonidan sintaktik bilimni aniqlash uchun samarali usul deb topilgan. Tahlillarimiz natijalariga ko'ra, Profilanalyse chet tili sifatida o'rganayotgan nemis tili o'rganuvchilarga nisbatan qo'llanilishi mumkin va, qolaversa, zarur. Fikr gap orqali ifodalanar ekan, gapni to'g'ri tuza olish ko'nikmasining ahamiyati juda katta.

Kalit so'zlar: til o'zlashtirish, sintaktik bilim, *Profilanalyse* usuli (profil tahlili), chet tilini o'qitish, bilimni baholash.

Psixolingvistika ("rivojlanish psixolingvistikasi") sohasidagi tadqiqotlar natijalaridan ma'lumki, ona tilini o'zlashtirish jarayonida sintaksisni o'zlashtirish bolaning 1-1,5 yoshida boshlanadi va 4-yil oxiriga kelib, u tomonidan tildagi gaplarning grammatik tuzilishi butunlay o'zlashtiriladi (Tracy 2002, Rothweiler 2015, Traxler 2011, Ушакова 2006 va b.)². Sintaktik bilim orqali tushunish va boshqalarga tushunarli bo'lish imkonlari yaratiladi. Buning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanini ayniqsa Broka afaziyasiga xos agrammatizm holati, ya'ni grammatik jihatdan to'g'ri nutq tuza olish qobiliyatini yo'qotish holati ko'rsatadi.

O'ylaymizki, sintaktik bilim nafaqat ona tili uchun, balki chet tili o'rganishda ham zarur va katta ahamiyatga ega. Bizning ko'plab kuzatuvlar va yig'ilgan ma'lumotlarimiz shuni ko'rsatadiki, nemis tili o'rganuvchilarning og'zaki va yozma nutqida grammatik jihatdan noto'g'ri gaplar mavjudligi ko'p uchraydigan muammolardan bittasi. Hattoki til bilish darajasi yuqori bo'lgan o'rganuvchilar ham gap tuzishda muntazam ravishda oddiy xatolarga yo'l qo'yadilar (xato „*“ belgisi bilan ifodalanadi). Quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

a. **Die Wissenschaft nicht nur medizinische Erkenntnisse sondern auch für andere Bereiche brauchen.* (fe'l o'rni xato, ega mavjud emas)

b. **Es handelt sich um die Frage, ob wie wirkt sich Wissenschaft im Leben der Menschen aus.* (fe'l o'rni xato)

d. **Zwar die Wissenschaft solche zahlreiche Vorteile zur Verfügung stellt, muss man aber nicht außer Acht lassen, dass es sich auch einige negative Aspekte mitbringt.* (fe'lning muayyan bog'lovchilardan keyin egallaydigan o'rni qoidasi buzilgan)

Misollar talabalarining matnlaridan olingan va ko'rinib turganidek, grammatik xatolar qo'llanilgan so'zlarga nisbatan oddiyroq, ya'ni bu yerda boshlang'ich darajada o'rganilish kerak bo'lgan qoidalar yetarli darajada mustahkamlanmaganligi oshkor bo'lyapti.

Aynan shunaqa vaziyatda, ya'ni erishilgan va hali o'zlashtirilishi kerak bo'lgan ko'nikmalar haqida xulosa chiqarish kerak bo'lgan holatlarda *Profilanalyse (profil tahlili)* samarali usullardan biri deb qabul qilingan. *Profilanalyse* yondashuvi dastlab ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, u bolalardagi nutq patologiyasini diagnostika qilish uchun ishlatilgan. Nemis tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilarning til bilish darajasini baholash uchun esa bu yondashuv Vuppertal ZISA loyihasi doirasida (Germaniya) Clahsen (1985) tomonidan ishlab chiqilgan (Grießhaber 2005: 7).

Clahsen profil tahlili usuli Meisel, Clahsen va Pienemann (1979) olimlarning tadqiqot natijalariga asoslangan. Ushbu tadqiqotlarga ko'ra, sintaktik strukturalar (so'z tartibi qoidalari) ma'lum bir tartibda ketma-ket o'zlashtiriladi va bunda fe'l hamda uning gapdagi joylashuvi muhim omil hisoblanadi. Garchi nemis tilida so'z tartibi erkin bo'lsa ham, fe'l va uning komponentlariga taalluqli cheklovlar mavjud. Sodda gaplarda fe'llar odatda ikkinchi o'rinda turadi (a). Lekin fe'lning analitik shakllarida (zamon, nisbat, mayl kategoriyalarini hosil qiluvchi shakllar) fe'lning shaxssiz qismi gapning oxiriga o'tadi (b). Bundan tashqari, nemis fe'llarning ajraladigan prefikslari ham ajralib, gapning oxiriga qo'yiladi (d):

a. Das Kind **spielt** gerade. (Bola hozir o'ynayapti.)

¹ Xadjijeva Shoira Ganibayevna, SamDCHTI, Nemis filologiyasi kafedrasida

² Tracy mutaxassisiga qo'shilgan holda shuni ta'kidlab o'tish joizki, normal rivojlangan bolalar 4-6 yoshida ham ba'zi savollarni va murakkabroq gaplarni tushinishda qiynaladi (Tracy 2002: 8).

- b. Das Kind **hat** ruhig **gespielt**. (Bola jimgina o'ynadi.)
 d. Das Kind **spielt** gerne **mit**. (Bola mamnuniyat bilan birga o'ynayapti.)

Ega ham inversiya bo'lgan holatda finit fe'ldan keyin qo'yilishi kerak:

- e. Gerne spielt **das Kind** mit. (Mamnuniyat bilan bola birga o'ynayapti.)

Shu bilan birga, nemis tilida ergash gapli qo'shma gaplar ham o'ziga xos so'z tartibi bilan ajralib turadi, ya'ni bularda fe'llar o'zbek tiliga o'xshagan holda gapning oxiriga qo'yiladi:

f. Das Kind spielt gerne mit, wenn es Zeit **hat**. (Vaqti bo'lgan paytda bola mamnuniyat bilan birga o'ynaydi.)

Demak, nemis tilida asosan quyidagi 3 ta so'z tartibi (sintaktik qolip) turlari o'zlashtirilishi lozim:

V-END (fe'l oxirida)

ergash gapning so'z tartibi

PARTICLE (fe'l komponentlari ajralishi)

fe'ning analitik shakllari, modal fe'li+fe'l, ajraladigan prefiksli fe'llar

INVERSION (tartib o'zgarishi)

ega birinchi pozitsiyadan siljisa

Meisel, Clahsen va Pienemann (1979: 35) ta'kidlashicha, ushbu so'z tartibi qoidalari quyidagi bosqichlar ketma-ketligida o'zlashtiriladi:

- I qoidalarining hech biri o'zlashtirilmagan
- II faqat PARTICLE o'zlashtirilgan
- III PARTICLE va INVERSION o'zlashtirilgan
- IV PARTICLE, INVERSION va V-END o'zlashtirilgan

Clahsen (1985) taqdim etgan profil tahlili Grieshaber (2002c) tomonidan "Deutsch & PC" loyihasi doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilarning (asosan nemis tili ona tili bo'lmaganlarning) til bilish darajasini ishonchli va tez aniqlash uchun taklif qilingan. Shu bois, bu Profilanalyse usuli Grieshaber tomonidan qayta takomillashtirilgan va shu bilan birga soddalashtirilgan (Grieshaber 2005: 12). Unga ko'ra, til bilish darajalari quyidagicha tasniflanadi (Grieshaber & Heilmann 2012: 13-14):

Daraja 0: parcha-parcha, aniq grammatik shakllardan mahrum nutq;

Daraja 1: soddaga gaplar, ega va kesim moslashuvi mavjud;

Daraja 2: shaxsli va shaxssiz fe'llarning to'g'ri joylashtira olishi (fe'ning analitik shakllari);

Daraja 3: inversiya, ya'ni gap bo'laklari odatdagi tartibining o'zgarishi;

Daraja 4: ergash gapli qo'shma gaplarning to'g'ri qo'llanilishi;

Daraja 5: nutqda interpozitsiya mavjudligi, ya'ni ergash gap bosh gapning o'rtasida kelish holati;

Daraja 6: nutqda murakkab sifatdoshlarning (aniqlovchi funksiyada) qo'llanilishi.

Oxirgi ikkita darajada o'zlashtiriladigan strukturalar til bilish darajasi yuqori bo'lganidan dalolat beradi.

Grieshaber binoan, profil tahlili odatda 150 so'zdan iborat bo'lgan matnlarda (yozma yoki og'zaki) olib boriladi. Bu uchun har bir matn jumalarga ajratiladi va ular alohida tahlil qilinadi. Har bir jumlaning profil darajasi ularda qo'llanilgan sintaktik strukturaga qarab aniqlanadi. Til bilish darajasi esa matnda eng yuqori profil darajasiga mos strukturalarning ishlatilgan soniga qarab belgilanadi. Strukturalar kamida 3 marta to'g'ri ishlatilgan bo'lishi lozim (Grieshaber 2013). Masalan:

№	Jumlalar	So'z tartibi				
		4	3	2	1	0
1	Die beliebtesten Studiengänge auf dem ersten Platz bei den Frauen und Männern liegt Betriebswirtschaftslehre.					x
2	Danach bei den Männern ist Maschinenbau beliebter als Informatik.					x
3	Am zweiten Platz zwischen Frauen liegt Germanistik und danach Medizin					x
4	Danach folgt bei den Männern Elektrotechnik und bei den Frauen Rechtswissenschaften.		x			
5	Am letzten Platz liegt Rechtswissenschaften bei den Männern und bei den Frauen Pädagogik.		x			
	Profil	-	2	-	-	3

	Til bilish darajasi	Daraja 0
--	----------------------------	-----------------

Ko'rib turganimizdek, matnni tuzgan o'rganuvchining profil darajasi **0**, chunki eng ko'p qo'llanilgan strukturalar shu darajaga xos. Daraja 3 ga xos inversiya ishlatilishi o'rganuvchining ushbu darajani egallash jarayonda ekanligidan dalolat beradi, ammo bu struktura hali o'zlashtirilmagan hisoblanadi.

Keyingi misolga nazar tashlaylik:

№	Jumlalar	So'z tartibi						
		6	5	4	3	2	1	0
1	Heutzutage benutzen viele Kinder und Jugendliche ein Smartphone.						x	
2	Digitale Medien prägen ihren Alltag.						x	
3	In diesem Zusammenhang stellt sich eine Frage,				x			
4	ab welchem Alter die Kinder ein Smartphone nutzen.			x				
5	Einerseits ist die Smartphonennutzung zeitgemäß und beruhigt die Eltern,				x			
6	weil sie genauer wissen möchten, wo ihr Kind ist.			x				
7	Andererseits kann tägliche Smartphonennutzung ab erst sechs negative Auswirkungen auf die Gesundheit haben.				x	x		
8	weil es nicht nur auf die Gedankenschwäche sondern auch auf die Sehefähigkeiten schlecht wirkt.			x				
9	Wenn die Eltern ihren Kindern ein Smartphone schenken,			x				
10	sollen sie auch genug Zeit haben, sie unter Kontrolle zu setzen.			x		x		
11	oder statt Smartphone schenken sie ihnen eine Smartwatch.				x			
12	Denn Smartwatches						x	

	haben kein Gefahr mehr.							
13	Außerdem kann man Smartwatches auch in der Schule benutzen.				x	x		
	Profil	-	-	5	5	3	3	-
	Til bilish darajasi	Daraja 4						

Tahlilimiz natijasiga ko'ra, o'rganuvchining sintaktik bilimi yaxshi, ya'ni nemis tilining asosiy gap tuzish qoidalari yaxshi o'zlashtirilgan desak, adashmagan bo'lamiz. Matnda 5 va 6 darajalarga oid sintaktik strukturalar ishlatilmaganligi bois o'rganuvchi 4-darajaga yetgan deb hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Griebhaber tomonidan ishlab chiqilgan *Profilanalyse* usuli asosan nemis tilini ikkinchi til sifatida o'zlashtirayotgan bolalar va o'smirlar uchun mo'ljallanganligiga qaramasdan, uni, bizning fikrimizcha, chet tili sifatida o'rganayotgan barcha nemis tili o'rganuvchilarga nisbatan qo'llasa bo'ladi. Ushbu usul yordamida erishilgan til darajasini oson va tez aniqlash mumkin. Profil tahlili ayniqsa til o'rganishning dastlabki bosqichlarida qo'llanilisa va dars jarayonida ma'lum vaqt oralig'ida amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birgalikda, yuqorida aytib o'tilgan muntazam ravishda oddiy xatolarga yo'l qo'yadigan o'quvchilar ham ushbu usul orqali mustaqil ravishda o'z til ko'nikmalarini takomillashtirishlari mumkin. Profil tahlili yordamida o'rganuvchilarning til bilish qobiliyati har taraflama aniqlanmasa-da, u orqali o'rganuvchining sintaktik bilimini aniqlash imkoniyati tug'iladi. Qolaversa, gapni to'g'ri tuza olish ko'nikmasi har qanday tilni o'rganishda ham asosiy ko'nikmalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Griebhaber, W. *Sprachstandsdiagnose im kindlichen Zweitspracherwerb: Funktional-pragmatische Fundierung der Profilanalyse*. 2005 URL:<https://ids-pub.bsz-bw.de/frontdoor/index/index/docId/10388> [09.02.25].
- [2]. Griebhaber, W., Heilmann, B. *Diagnostik & Förderung - leicht gemacht. Deutsch als Zweitsprache. Ein Praxishandbuch*. Klett Verlag, 2012.
- [3]. Griebhaber, W. *Die Profilanalyse für Deutsch als Diagnoseinstrument zur Sprachförderung*. 2013 URL: https://www.uni-due.de/imperia/md/content/prodaz/griesshaber_profilanalyse_deutsch.pdf [09.02.25].
- [4]. Meisel, J., Clahsen, H., Pienemann, M. *On determining developmental stages in natural second language acquisition*. // *Wuppertaler Arbeitspapiere zur Sprachwissenschaft* 1979. 2/79. S. 1-53.
- [5]. Rothweiler, M. *Spracherwerb*. // *Einführung in die germanistische Linguistik*. J.B. Metzler, Stuttgart, 2015.
- [6]. Tracy, R. *Deutsch als Erstsprache: Was wissen wir über die wichtigsten Meilensteine des Erwerbs?* 2002. URL: <https://www2.ids-mannheim.de/prag/sprachvariation/fgvaria/Info-Spracherwerb-2002> [09.02.25].
- [7]. Traxler, M. J. *Introduction to Psycholinguistics: Understanding Language Science*, John Wiley & Sons, Incorporated, 2011.
- [8]. Ушакова, Т.Н. (ред.) *Психолингвистика: Учебник для вузов*. М.: Пер Сэ, 2006.